IQRO JURNALI /2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2, ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

SOCIAL AND POLITICAL LIFE OF USTRUSHONA IN THE EARLY MIDDLE AGES

Mamaradjabov Jamshid
Graduate student of Gulistan State University
E-mail: j.mamaradjabov@mail.ru

Annotation: You can owe lots of important informations to the socio-political life of Ustrushona in the early Middle Ages, the lifestyle of the population, the medical and geographical location, the construction of rural areas, legislation, the mass settlement of pastoral tribes, diplomatic and trade relations with neighboring countries, facts about the history of cities in this article.

Key words: Kushan state, Ustrushana, Sughd, Movarunnahr, Turkic khanate, Khionids, Kidaris, Ephtalians, Syrdarya, Amudryo, Shahristonsoi, Zaminsuv, Sangzor, Sui dynasty, Tan dynasty, Afshin.

USTRUSHONANING ILK O‘RTA ASR IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTI

Mamaradjabov Jamshid Parmonovich
Guliston davlat universiteti, 2-kurs magistranti
E-mail: j.mamaradjabov@mail.ru

Anotatsiya: Ushbu maqolada Ustrushonaning ilk o‘rta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayoti, aholining turmush tarzi, tabbiy geografik o‘rni, qishloq makonlari qurilishi, qonunchilik, chorvador qabilalarning ommaviy ravishda o‘troqlashishi, qo‘shni davlatlar bilan diplomatik va savdo-sotiq aloqalari, shaharlar tarixiga oid ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Kushon davlati, Ustrushona, Sug‘d, Movarounnahr, Turk xoqonligi, xioniylar, kidariylar, eftaliylar, Sirdaryo, Amudryo, Shahristonsoy, Zominsuv, Sangzor, Suy sulolasi, Tan sulolasi, Afshin.

Milodning III asri oxirlarida qudratli Kushon saltanati va Qang‘ konfederativ davlati parchalanib ketdi. Bu uning tasarrufidagi katta geografik hudud, asosan, O‘rta Osiyoning ikki daryosi (Sirdaryo, Amudaryo) oralig‘idagi barqaror o‘troq hayot tarzidagi madaniy vohalarda mustaqil taraqqiyot jarayonlari boshlanishiga sabab bo‘lgan. Bu Ustrushona mulklari uchun ham ta’lluqli bo‘lib bu erda ham IV-V asrlarda mustaqil boshqaruv tizimi qaror topa boradi. Ilk o‘rta asrlarga oid manbalarda O‘rta Osiyoning So‘g‘d, Choch, Farg‘ona kabi dehqonchilik mulklari qatorida Ustrushona haqida ham eslatiladi. Ilk o‘rta asrlarda ya’ni, milodiy IV-VI asrlar O‘rta Osiyo tarixida Movarounnahrning ichki viloyatlariga xiyoniy, kidariy, eftaliy va turk kabi ko‘chmanchi qabilalarning kirib kelishi hamda yangi siyosiy uyushmalarning yuzaga kelishi bilan izohlanadi.

Bu davrda O‘rta Osiyoga kelib joylashgan qabilalar Amudaryo va Sirdaryo hududlarida hayot kechirib kelayotgan chorvador xalqlarga madaniy va til jihatidan ancha yaqin elatlar edilar. IV asr o‘rtalarida o‘lkamizga shimoldan ko‘chmanchi xioniylarning hujumi boshlanadi. Ularga tadbirkor hukmdor Grumbat boshchilik qilgan. Xioniylar 353-yili So‘g‘dga yurish qiladilar, 359-yili esa Eron hukmdori Shopur II bilan ittifoqchilik burchini ado etib Suriyaning Amida shahri uchun bo‘lgan jangda qatnashadilar. Ushbu jangda Grumbatning o‘g‘li halok bo‘ladi. IV asrning 60-70-yillariga kelib xioniylarning forslar bilan munosabatlari buziladi. Eron shohi Shopur II xioniylarga qarshi kurashib,

ikki marotaba yengiladi. Ma’lumotlar yetarli bo‘lmasa-da, mutaxassislar xioniylar kidariylar bilan ittifoqda bo‘lganligini taxmin qiladilar. Bunda ular shu davrda Sirdaryo va Amudaryo oralig‘idagi yerlar xioniylar ta’siri ostida bo‘lganligi hamda ba’zi manbalarda xioniylar kidariylar bilan yonma-yon tilga olinishiga asoslanadilar.

Ustrushonashunos olim M.H.Pardayevni ta’kidlashicha, IV asrning o‘rtalarida Sug‘dni istilo qilishni boshlagan xioniylar dastlab o‘rta Sirdaryoning chap qirg‘oq havzasida joylashgan Ustrushona yerlarini istilo qilishgan va o‘z hukmronliklarni o‘rnatishgan. Hozirgi Jizzax vohasi xioniylar tomonidan istilo qilingan dastlabki madaniy vohalar sirasiga kiradi. Eng asosiysi bu davrda nafaqat Ustrushonada balki, butun O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘ida xioniylarga munosib qarshilik ko‘rsatadigan harbiy kuch yo‘q edi. Ikkinchidan milodiy IV asr oxiri va asosan V asrdan boshlab Jizzax vohasida qishloq makonlari qurilishi ko‘lami keskin oshadi. Ko‘p sonli chorvador qabilalar jamiyatida sodir bo‘lgan ijtimoiy tabaqalashuv sabab, ularning aksariyati, ommaviy ravishda o‘troqlashadi. Bu esa sun’iy demografik to‘lqin yuzaga kelishiga sabab bo‘lardi va aholini qishloq turar joylari bilan ta’minlash vazifasini dolzarbligini ta’minlaydi. Sangzorning quyi oqimida joylashgan xususan, Qaliyatepa atrofidagi 30 ga yaqin qishloq makonlarining aksariyati (Pardaqultepa, Rasulboyqultepa...) IV asr oxiri va asosan V asrda bunyod etilgan. Nihoyat, uchinchidan, qishloq makonlari va hatto Qaliyatepa shahrining IV-V asrlarga oid madaniy qatlamlaridan olingan arxeologik materiallarda o‘z xususiyatiga ko‘ra cho‘l-dasht chorvador aholi madaniyatining ta’siri sezilib turadi.

Ilk o‘rta asrda kirib kelgan elatlardan biri toxarlar (kidariylar) bo‘lib, ular haqidagi asosiy ma’lumotlar Xitoyning Beyshi solnomasida hamda g‘arb mualliflaridan Prisk Poniyskiy asarlarida uchraydi. Ushbu ma’lumotlarning tahlili kidariylar sulolasining asoschisi, dastlabki hukmdor Sidolo yoki Kidara IV asrda humronlik qilganligini ko‘rsatadi. Ammo bu ma’lumotlar to‘liq emas. Ba’zi manbalarda Kidara Kushonlar davlatining so‘nggi hukmdori sifatida tilga olinadi. Ushbu ma’lumotlardan kidariylar kushonlarning bevosita davomchilari bo‘lganligini taxmin qilish mumkin.

V asrning o‘rtalarida diyorimizga shiddat bilan kirib kelgan yangi ko‘chmanchi aholi yozma manbalarda eftal, xaftal, xaytal degan nomlar bilan tilga olinadi. Eftaliylar manbalarda dastlab 453-454 va 457-yillar voqealari bilan bog‘liq tarzda tilga olinadi. Ularda keltirilishicha, eftaliylar ularga hujum qilgan Yazdigerd II qo‘shinini tor-mor keltirib, Eronning ichkarisiga ham talon-taroj yurishlarini amalga oshirganlar. Mazkur voqealar 453-454-yillarda sodir bo‘lganligi qayd qilinadi. Shuningdek, 457-yilda eftaliylar hukmdori Vaxshunvar Chag‘oniyon, Toxariston va Badaxshonni o‘ziga bo‘ysundirgan. 456-yilda eftaliylardan Xitoyga dastlabki elchilar kelgan.

Milodiy V va VI asrning birinchi yarmida, Toroman va Mihraqula ismli podsholar davrida ushbu davlat gullab yashnagan. Ikkinchi davlat O‘rta Osiyoning janubi va Shimoliy Afg‘oniston hududlarida tashkil topgan. Bu yerdan eftaliylar Sharqiy Turkiston yerlarini zabt etganlar. Eftaliylar davlati ulkan hududni qamrab olgan bo‘lib, O‘rta Osiyoning asosiy qismi, Sharqiy Turkiston hamda Shimoliy Hindistonning yarmi Gandxara bilan birgalikda mazkur davlat tarkibiga kirgan. Asli eftaliylarda ikkita davlat mavjud bo‘lib, ulardan biri Afg‘onistonning janubi- sharqiy qismi, Pokiston va Shimoliy Hindiston hududlarini qamrab olgan. Eftaliylar davrida shaharlar ravnaq topib, ularning ahamiyati ortadi. Kushoniya (Kattaqo‘rg‘on yaqinida), Rivdad, Poykend, Tallikon, Termiz, Gurgon, Varaxsha shaharlari shular jumlasidandir. Eftaliylar davlati hukmdorining qarorgohi

Varaxsha saroyida bo‘lganligi taxmin qilinadi.

Bu sulolalar davrida qishloq jamoalari bilan chegaradosh hududlarda, tog‘ oldi, cho‘l-dasht mavzelarda O‘rta Osiyoni boshqa o‘lkalarida bo‘lgani kabi Ustrushonada ham chorvadorlar uchun hayotiy zaruriyat hisoblangan yaylovlarning asosiy qismi qabila va urug‘ jamoalari oqsoqollar-biylarning qo‘l ostida bo‘lgan. Ustrushonaning markazi shimoliy va g‘arbiy viloyatlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha V-VI asrlarda dehqonchilik vohalari atrofiga kelib o‘rnashgan eftal qabilalarining ommaviy ravishda o‘troqlashuvi kuchayadi. Bunday holatni Shahristonsoy, Zominsuv, Sangzor daryosi havzasidagi gavjum ko‘rinishda joylashgan va ushbu davrga oid qishloq yodgorliklari misolida ko‘rishimiz mumkin.

V-VI asrlarda dehqonchilik vohalarida eftaliylarning o‘troqlashuvi kuchayadi. Buning oqibatida sug‘oriladigan yerlarga bo‘lgan talab ortadi. Mazkur ehtiyojni qondirish maqsadida kichik-kichik zovur va anhorlar qazilib, ko‘plab yangi erlar o‘zlashtiriladi. Hozirga qadar saqlanib qolgan Zog‘ariq, Bo‘zsuv, Darg‘om kanallari V asrda barpo etilgan yirik sug‘orish tarmoqlarining namunalaridir. Jizzax vohasida ham yangi o‘zlashtirilgan yerlarda o‘troqlashgan chorvadorlar yoki mahalliy dehqonlarning ko‘shklari atrofi mustahkam devorlar bilan o‘ralgan qo‘rg‘onlari, mukammal istehkomga ega, hashamatli qasrlari qad ko‘taradi. Keyinchalik vohada ustivor mavqega ega, mamlakatda katta imtiyoz va harbiy kuchga ega bo‘lgan zamindor dehqonlar qo‘l ostidagi rustoqlarga asos solinadi. Aynan shu davrda O‘rta Osiyoga navbatdagi yangi siyosiy kuch Turk hoqonligi qo‘shinlari kirib kela boshlaydi.

Bu davrda ya’ni VI asr boshlarida Oltoy o‘lkasida siyosiy jarayonlar faollashadi. O‘sha paytda hozirgi Mo‘g‘uliston va qisman Xitoyning shimoliy hududlari ustidan Jujan xonligi hukmronlik qilardi. VI asr boshlarida Oltoydagi turkiy qavmlar orasida Ashin urug‘ining mavqei ko‘tariladi. Ashin urug‘iga mansub Asan va Tuu 460-545-yillarda boshqa urug‘larni o‘zlariga bo‘ysundiradilar va Oltoyda turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar. Tuuning o‘g‘li Bumin Tele qabilasini ham bo‘ysundiradi. Bumin 552-yilda Xoqon deb e’lon qilinadi va yangi davlat - Turk hoqonligiga asos soladi. Uning poytaxti Oltoydagi O‘tukan shahri edi. Xoqonlik tez orada kuchayib, uning dovrug‘i ortib borgan.

Turk xoqonligi 568-569-yillarda o‘sha davrning qudratli davlati - Vizantiya bilan iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalarini o‘rnatishga intilib, sug‘d savdogari Maniax boshchiligidagi elchilarni u yerga yuboradi. Elchilar imperator Yustinian II qabulida bo‘ladi. Shundan so‘ng Vizantiyannig Zemarx boshliq elchilari xoqonlik davlatiga keladi. Bu esa shu davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va savdo-tijorat munosabatlarini o‘natishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Turk xoqonligi 603 yili ikkita mustaqil davlatga bo‘inib ketadi. Ulardan biri Mo‘g‘ulistonda tashkil topgan Sharqiy Turk xoqonligi, ikkinchisi esa O‘rta Osiyo, Jung‘oriya va Sharqiy Turkistonning bir qismini o‘z ichiga olgan G‘arbiy Turk xoqonligi edi.

Turk xoqonligining sharqiy yerlaridan farqli o‘laroq G‘arbiy hududda aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzi, madaniy darajasi nisbatan yuqori bo‘lgan. Negaki, sharqiy hududlarda yashagan ko‘pchilik ko‘chmanchi turkiy elatlarda urug‘-qabilachilik munosabatlari hamon kuchli saqlangan. Aholining quyi tabaqasi budun yoki qora budunlar deb atalgan. Urug‘-qabilaning nomdor vakillari “beklar” deb yuritilgan. Jamoani xoqon va zodaganlar kengashi –“Qurultoy” boshqargan. O‘rta Osiyo yerlarida esa bu davrda dehqonchilik, bog‘dorchilik va uzumchilik sohalari yuksak darajada rivojlangan. O‘lkaning Farg‘ona, Xorazm va Zarafshon vohalarida ko‘plab suv ayirg‘ichlar, kanallar, suv havzalari bunyod yetilgan.

Xoqonlik davrida Farg‘ona, Sug‘d va Ustrushonada aholining bir qismi tog‘- kon ishlari bilan ham mashg‘ul bo‘lgan. Bu yerlarda oltin, mis, temir yeritish, ulardan kerakli asbob-anjomlar ishlash yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, Illoqda qo‘rg‘oshin, kumush, Ustrushona tog‘lararida (Mink) temir, Shahrisabzda esa qizil tuz qazib olingan.

VII asr boshlariga kelib, Xitoyda Suy sulolasi hukmronligining tugashi bilan G‘arbiy Turk xoqonligi yana taraqqiyotga yuz tutadi. Tan sulolasining hokimiyatga kelishi bilan O‘rta Osiyo va Xitoy o‘tasida aloqalar jonlanadi. Elchilik munosabatlari yangidan yo‘lga qo‘yiladi. VII asrning birinchi choragida G‘arbiy xoqonlik nihoyatda kuchayadi. Uning sharqiy chegarasi Oltoyga, Janubiy chegarasi esa Hind daryosi bo‘ylariga borib taqaladi. Xoqon To‘nyabg‘u davrida (618-630) boshqaruv tartiblari isloh qilinadi. O‘troq viloyat hokimlarini hoqonlik ma’muriyati bilan bevosita bog‘lash va ularning ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida, mahalliy hukmdorlarga hoqonlikning “yabg‘u” unvoni beriladi. Shu bilan birga O‘rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Choch, Farg‘ona, Ustrushona, Sug‘d va Toxaristonning deyarli mustaqil hokimliklari ustidan siyosiy nazorat kuchaytirilib, ular huzuriga xoqonlikning vakillari yuboriladi. Bunday vakillar “tudun” deb yuritilgan. Bo‘ysundirilgan hududlarni mahalliy hokimlar orqali boshqarish tartibi hoqonlikni zaiflashtira bordi.

Turk xoqoni Tun yabg‘u hukmronligi davrida amalda mustaqil bo‘lgan O‘rta Osiyo davlatlari ustidan nisbatan qattiq siyosiy nazorat o‘rnatiladi. Chunki bu davlatlarning vassalligi faqat o‘lpon to‘lash bilan chegaralanar edi. Bu paytda mahalliy viloyatlarga xoqon Tun yabg‘uning ishonchli vakillari-tudunlar yuborilib, ular soliqlar yig‘ish va hoqon qarorgohiga yuboriladigan o‘lponlarni qattiq nazoratga oldilar. Mahalliy hokimlarga ularni hoqonlik mamuriy boshqaruviga qo‘shilganlik ramzi sifatida turk unvonlari berildi. Shu bilan birgalikda To‘n yabg‘u nisbatan kuchli bo‘lgan mahalliy hukmdorlar bilan shaxsiy munosabatlarini mustahkamlashga harakat qildi. Bu paytda Ustrushona ichki boshqaruviga ko‘ra mustaqil bo‘lgan bo‘lsa, arablar bosqini bu boshqaruv tartiblariga zarba berdi va keyinchalik uning mustaqil mulk sifatidagi maqomini yo‘qotdi.

Bu davrda ham yurtimizda moddiy va ma’naviy madaniyatning yangi-yangi betimsol namunalari yaratildi. Turli olimlar mutaxassislar bahsiga sabab bo‘lgan Turk-ruin, Urxon-Yenasoy yozuvi, Kultegin bitiklari, Bilga xoqon yodnomasi va shu singari noyob topilmalar turk yozma madaniyatning qadimiyligi va rang-barangligiga guvohlik beradi. 1970 yilda Almati yaqinidagi «Issiq» degan joydan topilgan va fanga «Issiq yozuvi» nomi bilan kirgan turkiy yozuv ham bizning yozuv tariximizga oid qarashlarimizni yanada boyitadi. Endilikda topilgan noyob ashyoi dalillar asosida turkiy yozuvning tarixi miloddan avvalgi II-I asrlarga borib tutashishi ma’lum bo‘ldi. VI-VII asrlarda savdo sotiq ishlarida janubdan shimolga tamon ko‘chgan. Bunga vositachilik qilish so‘g‘diylaning qo‘liga o‘tadi. Ular nafaqat quriqlikda, balki shu bilan bir qatorda Kaspiy dengizi orqali ham savdo ishlarida faol qatnashgan. Bu borada Poykant shahrini alohida tilga olish lozim, chunki mazkur joyda savdogarlar ko‘p istiqomat qilganlar va o‘sha vaqtdagi oldi sotdilarni ular amalga oshirganlar. Shu boisdan ham bu shahar savdogarlar shahri yani “Madinat at-tujor” deb bejiz aytilmagan.

O‘rta Osiyo hoqonlik boshqaruviga o‘tgan bo‘lsada, turk harbiy boshliqlari eftalitlardan farqli tarzda mahalliy hokimliklarning ichki ishlariga deyarli aralashmaydilar. Bu davrda Ustrushona mamlakati ma’muriy hududiy jihatdan 18 ta rustoqqa ya’ni qishloq xo‘jaligi tumanlaridan tashkil topgan. Mazkur rustoqlar mahalliy zadagon-dehqonlar, urug‘ jamoalarining sarkorlari tomonidan

boshqarilgan. Har bir rustoq sarkori o‘zining harbiy qo‘riqchi otryadiga ega bo‘lgan. Barcha rustoqlar sarkorlari tepasida mamlakat hukmdori, butun Ustrushona afshini turgan. VIII asr boshlarida Ustrushonada kelib chiqishiga ko‘ra turkiy bo‘lgan, Xarabugra (Qora Bug‘ro F.T.) hokimyatni o‘z qo‘liga oladi va taxtga yangi afshinlar sulolasi keladi. Bu sulola davrida Ustrushona yanada gullab yashnagan. Afshin qo‘l ostida qisman cheklangan - fuqarolar, harbiy va diniy- ruhoniy hukmronlik to‘plangan. Mamlakat hukmdori afshin yirik yer egasi bo‘lgan.

Ko‘p sonli qishloqlarni birlashtirgan rustoqlarning sarkori ancha cheklangan huquqlarga ega bo‘lgan. Ustrushonadagi hukmron tabaqaning iyerarxiyasi haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Biroq, afshin, qishloq xo‘jaligiga asoslangan mahalliy amloq-rustoqlar boshlig‘i sarkolrlar va qishloq oqsoqollari-kadxudolardan tashkil topgan. Ustrushonshunos N.Negmatovning yozishicha, Ustrushona qo‘shinlari yengil va og‘ir qurollangan, otliq suvoriy va piyoda askarlardan tashkil topgan. IX-X asrlarda bu qo‘shinning soni 20 mingdan ancha oshgan. Qo‘shin Ustrushona afshini chaqiruvi bilan rustoqlardan yig‘ilgan. Bu qo‘shin tarkibiga sarkorlarning xususiy chokar otryadlari ham qo‘shilgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Ustrushona hukmdorlari “afshin” nisbasi bilan atalgan. Bu nisba O‘rta Osiyoda keng tarqalgan hukmdor tabaqa atamalaridan biri bo‘lib, u Ustrushonadan tashqari markaziy Sug‘d, Samarqand, Kichik Osiyo, Kavkaz kabi o‘lkalarda uchraydi. At-Tabariyning “Tarixi-at Tabariy” asarida mamlakat hukmdorlari “malik” va “dehqon” nomi bilan e’tirof etilgan. Keyingi davrlarda yozilgan arab muarrixlarining asarlarida ham Ustrushona afshinlari afshin nomi bilan qayd etiladi.

Siyosiy vaziyatlar taqozosi bilan Ustrushona mustaqil davlat sifatida V asrning birinchi yarmidan boshlab faoliyat yurita boshlaydi. Bu haqda Xitoy manbalari ma’lumot beradi. Lekin bu davrdagi Ustrushona hukmdorlari, ularning sulolasi, nomlari haqida ma’lumot yo‘q. Bu mamlakat hududidan topilgan numizmatik topilmalarni mutaxassislar dastlab kushon podshohlarining so‘ngi davridagi hukmdorlari deb talqin qilishgan. Lekin Ustrushona poytaxti Qalayi- Qahqaxadan topilgan tangalari alohida xususiyatlariga qarab ularni mahalliy hokimyatga molik ekanligi aniqlangan. Bu erda VII arning boshi VIII asrning birinchi choragi (600-725) oralig‘ida hukmronlik qilgan va ular tomonidan zarb qilingan tangalarni to‘liq asos bilan afshinlar sulolasi vakillari, deb e’tirof etishga hozircha ma’lumotlar yetarli emas.

Numizmatik topilmalar bo‘yicha Ustrushonaning birinchi hukmdorlaridan biri Chirdmish nomi bilan tarixga kirgan. Mavjud manbalar Ustrushonada ikkita sulola hukmronlik qilganligini ta’kidlaydi. Birinchi sulolaga mansub Chirdmish, Satachari I, Raxanch I, Satachari II, Satachari III, Raxancha II va Raxancha III kabi humdorlar, ikkinchi sulolaga mansub afshinlardan Xarabugra (720-738), Xanaxara (738-800), Kovus ibn Xanaxara (800-825), Haydar ibn Kobus (825-840), Hasan (840-869), Abdulloh (860-880), Sayr (880-893) kabilar eslatiladi. Birinchi sulola (IV-VIII asrlar)ga mansub hukmdorlar haqida yozma manbalar saqlanmagan. Hozircha, ular tomonidan zarb qilingan tangalar asosiy manba bo‘lib qolmoqda. Ushbu hukmdor - afshinlardan Chirdmish, Satachari III va Raxancha III tomonidan zarb etilgan tangalar o‘rganilgan. Ayniqsa, A.A. Grisina tomonidan, ushbu tangalardagi tasvirlar va hukmdorlarning qiyofasiga ilmiy nazar bilan yondashib berilgan ta’riflar (Chirdmish - kuluvchi shoh, Satachari III - o‘qituvchi va h...), tarixiy voqealarni yanada jonli tasavvur etishga xizmat qiladi.

VII asrning boshidan oxiriga qadar Ustrushona xoqonlik tasarrufidagi nominal davlat maqomida faoliyat ko‘rsatgan. N.Negmatovning fikricha, “turk

xoqonlarining Ustrushona ustidan hukmdorligi kuchsiz edi. Ustrushonaliklar xoqonlik xazinasiga doimiy ravishda o‘lpon to‘lamaganlar. Turk xoqonlari o‘zlarining harbiy qo‘shinlarini Ustrushonada saqlamaganlar, davlat boshqaruviga o‘z noiblarini yubormaganlar, shunga qaramasdan, mamlakatning siyosiy hayotiga, ayniqsa tashqi siyosatiga xoqonlikning bir qadar ta’siri bo‘lgan. Turk xoqonligi Xitoyga bo‘ysunganidan keyin nominal holatda Ustrushona Xitoy hukmronligini tan olgan. Xitoyda hokimyat tepasiga Tan sulolasi kelganidan so‘ng (618-907) Ustrushona hukmdori 618-626-yillarda Xitoy imperatori huzuriga o‘z elchilarini yuboradi va u orqali o‘zini uning bayrog‘i ostida xizmat qilishga tayyor ekanligini bildiradi”.

Chorvador turkiy aholida urug‘-jamoachilik an’analari nihoyatda kuchli bo‘lib, qabila va urug‘ jamoalarining negizi katta oilalardan iborat edi. Qonunchilik, ijtimoiy hayotda u yoki bu masalalarni hal etish uchun «turkiy tuzuklari» yoki «Turolari» bo‘lgan, Xitoy tarixchisi shunday tuzuklardan biri Sug‘ddagi ibodatxonalardan birida saqlanishini yozadi. Qonunlarga ko‘ra, eng og‘ir gunoh qilgan odam urug‘-aymog‘i bilan yo‘q qilib yuborilgan. Qolgan jazolar o‘lim va turli miqdordagi tovon to‘lash usullari bo‘lgan. (Masalan, birovni o‘ldirsa buzuqchilik qilsa, ot o‘g‘irlasa, o‘lim jazosi, birovning mol-mulkini o‘g‘irlasa yoki kishiga lat etkazsa tovon to‘lagan va hokazo).

Turkiy hoqonlik ulkan hudud ichida zarur tinchlikni ta’minlaganligi natijasida «Buyuk Ipak yo‘li» samarali ishlashda davom etdi. O‘lkaning asosiy savdo hamkorlari Eron, Xitoy, Xindiston va Vizantiya edi. Bu mamlakatlarga to‘qimachilik, ipakchilik mahsulotlari, qimmatbaho toshlar va ulardan ishlangan buyumlar, taqinchoqlar, dorivorlar, nasldor arg‘umoqlar, bir necha xil tuz, sharob, bog‘dorchilik mahsulotlari, qazilma boylik va hokazolar olib borilgan. Bu jarayon Ustrushonada iqtisodiy hayotning jonlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Milodiy III asr oxirlarida Kushon va Qang‘ davlatlarining parchalinishi oqibatida mustaqil boshqaruv tizimining qaror topishiga zamin yaratdi. Xususan, Ustrushonada ham IV-V asrlarda mustaqil boshqaruv tizimi qaror topa boshlaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pardayev M.H., G‘ofurov J.I. Ustrushonaning ilk o‘rta asr qishloq makonlari (yozma va arxeologik manbalar asosida). Toshkent:. 2016-y.
2. M.H.Pardayev, F.E.Toshboyev. Ustrushonaning qadimgi davr davlatchiligi. Toshkent:. 2020-y.
3. M.H.Pardayev, B.B.To‘ychiboyev. Ustrushona qadimda va ilk o‘rta asrlarda. Toshkent:. 2017-y.
4. A.Asqarov. Eng qadimiy shahar T:, “Ma’naviyat”. 2001-y.
5. O‘zbekiston tarixi davlatchiligi ocherklari. T:, Sharq, 2001-y.
6. www.arxiv.uz
7. www.qomus.uz